

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна
 ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
 ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15

Umarov Sardor Yakubovich
 QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
 DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Shadiyeva Gulnora Mardiyevna
 O'ZBEKİSTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
 YO'LLARI 21-29

Халилдинов Азизбек Абдуқаҳхоровиҷ
 КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
 БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34

Мавлянов Мажид, Урдушев Ҳамракуլ
 КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

Асроров Азизбек Исомиддин угли
 ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
 КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52

Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi, Achilboyeva Sevinch O'tkir qizi
 MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

Камалов Ақмал Сайдакбаровиҷ
 ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
 ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАҲСИРИНИ БАҲОЛАШ
 УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68

Namazov Gafur Shokulovich
 IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Rasulov Azizkhon Mukhammadqodirovich
 YANGI O'ZBEKİSTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimjanovna
 ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich
 JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI 87-92

Alimatova Nargis Abdusalilovna
 KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullahayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi
 MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKİSTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облоқулович</i>	
МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАҶНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ	
ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i>	
YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI	
AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i>	
BADIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI	120-125
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i>	
YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIY IFODALASH	
TENDENSIYALARI	126-130
<i>Nurmanov Furqat Xayitqulovich</i>	
O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i>	
AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIY IFODASI HAMDA JANR	
IJODKORLARI.....	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i>	
METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV	149-153
<i>Qodirova Madinabonus Murodjon qizi</i>	
LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i>	
ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ	
АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKALARINING LEKSIK-SEMANTIK	
XUSUSUYATLARI	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i>	
BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna</i>	
SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i>	
THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM	
BLAKE	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i>	
ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN	
CHINA DAILY	191-197
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i>	
НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ	
ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKIOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTALARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI..... 207-212

Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li

TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 213-220

Раимова Шохсанам Ғайратжоновна

РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАННИГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ 221-227

Mukumov Bobur

CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL..... 228-234

Нодирахон Абдурахманова

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА..... 235-239

Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли

ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА..... 240-246

Turakulova Nazira

MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIY BOSHQARISH 247-260

Якубов Бекзод Эркинбаевич

КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ..... 261-265

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Mamajonov Xoshimjon Abdumalikovich

FIZIKA FANINI IJODIY O'ZLASHTIRISH YO'LLARI (AKADEMIK LITSEYLAR MISOLIDA) 266-271

Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna

O'ZBEKİSTON OLİY O'QUV YURTЛАRIDA İSPAN TİLİ BO'YICHA İJTİMOİY-MADANIY KOMPETENTLİKNI O'QITISH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISH 272-281

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI..... 282-287

Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 288-291

Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li

IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI..... 292-296

Jumaboev Nabi Pardaboevich

THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM 297-304

Kayumov Erkin Kazakbayevich

TASVIRIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI 305-310

<i>Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNG EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING ROLI	311-317
<i>Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna</i> SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI.....	318-322

Alimatova Nargis Abdusalilovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasи dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi
E-mail: nargis2207@gmail.com

KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yangi tahrirdagi O'zbekiston Kostitutsiyasida halol raqobat kafolati berilganligi, “raqobat” tushunchasining Sharq va G'arb falsafasida qadimdan qanday tushunilganligi, yangi davrdan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurda uning ma'no-mazmuni o'zgarishga uchraganligi, XXI asrga kelib, bu tushunchada ifoda etilgan xulq-atvor, munosabat, jarayon tamomila yangi ko'rinish olganligi ijtimoiy-falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilingan. Raqobat o'rniga hamkorlik hozirgi davrning talabi ekanligi to'g'risida xulosa chiqarilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, raqobat, falsafa, ijtimoiy-iqtisodiy tafakkur, hamkorlik, sog'lom raqobat

Alimatova Nargis Abdusalilovna

Tashkent State University of Economics
Associate Professor of the "Social and Humanities" Department,
candidate of philosophy

GUARANTEE OF FAIR COMPETITION IN THE CONSTITUTION

Abstract. This article provides a socio-philosophical analysis of the guarantees of “healthy” competition in the constitution, of the understanding of the concept of “competition” from ancient times in Eastern and Western philosophy, the change in the content of this concept in the New Age in socio-economic thinking and in the 21st century as a process, behavior and attitude of competition is realized in a completely new way. It is concluded that partnership instead of competition is the requirement of the time.

Keywords: constitution, competition, philosophy, socio-economic thinking, partnership, healthy competition

Алиматова Наргис Абдухалиловна

Ташкентский государственный экономический университет
доцент кафедры «Социально-гуманитарные науки»,
кандидат философских наук

ГАРАНТИЯ ЧЕСТНОЙ КОНКУРЕНЦИИ В КОНСТИТУЦИИ

Аннотация. В данной статье проведен социально-философский анализ гарантии здоровой конкуренции в Конституции Узбекистана, понимания понятия “конкуренции” с древних времен в восточной и западной философии, изменение содержания этого понятия в Новом времени в социально-экономическом мышлении и в XXI веке как процесс, поведение и отношение конкуренция осознаётся в совершенно новом образе. Сделан вывод, что партнерство вместо конкуренции-это требование времени.

Ключевые слова: конституция, конкуренция, философия, социально-экономическое мышление, партнерство, здоровая конкуренция

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N13>

Kirish. Zamonaviy xo'jalik yuritish sharoitlari raqobat kurashining kuchayganligi bilan xarakterlanadi. U esa o'z navbatida iste'mol bozorlarining globallashuvi jarayonlari hamda siyosiy, xalqaro, tashqi iqtisodiy omillar ta'sirida bo'lgan milliy iqtisodiyotlarning maxsuslashuvi bilan shartlangan. Shunga bog'liq ravishda milliy iqtisodning asosi bo'lgan korxona raqobatbardoshligini boshqarishning yangi samarali metodlari va vositalarini ilmiy tadqiq etish va amalda qo'llash ehtiyoji ortib bormoqda.

2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65-moddasida "Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi, iste'molchilarining huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi", -deyilgan. Ushbu bilan halol raqobat kafolatlari yaratildi.

Ayni damda O'zbekiston globallashuv sharoitida o'zining xalqaro indekslardagi pozitsiyasini yaxshilashga harakat qilmoqda. 2020-yil 7-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni chiqdi. Unga ko'ra "Raqobat to'g'risida" va "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonunlar birlashtirilib, yangi qonun loyihasi ishlab chiqiladigan bo'ldi. Ushbu qonun loyihasi hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlangan[1]. Shuningdek, yuqorida nomi keltirilgan farmonga muvofiq "2020 — 2024-yillarda tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi" ham qabul qilindi.

Ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida raqobatning talqini qadimdan to hozirgi kungacha rivojlanib, o'zgarib borganini ko'rishimiz mumkin. XXI asrga kelib, raqobat mazmuni butunlay o'zgacha ma'no kasb etayotganini ta'kidlashimiz lozim.

Adabiyotlar tahlili. "Raqobat", "raqobatbardoshlik", "raqobat muhiti" tushunchalari o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lib, adabiyotlar tahlili natijasida ushbu tushunchalarni, asosan, ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurda XVIII asrdan boshlab, dastlabki iqtisodiy maktablar vakillari tomonidan iqtisodiy jarayon, xulq-atvor yoki munosabat sifatida o'rganilganligi ma'lum bo'ladi.

Shunday qilib, Qadimgi Hindistonning "Tipitaka", "Nyaya-sutra", "Atmabodxa", Qadimgi Xitoyning "Dao de-szin", Markaziy Osiyoning "Avesta" kabi falsafiy manbalarida raqobat insonlar orasidagi munosabatga xos xususiyat sifatida ta'riflanganini, Aristotel asarlarida dastlabki iqtisodiy talqinini, Abu Ali ibn Sino esa raqobatni salbiy ma'noda tushunganligini ko'ramiz.

Yangi davrda dastlabki iqtisodiy maktablar vakili Adam Smit, Merkantilizm vakillari, Devid Yum, mumtoz siyosiy iqtisod yo'nalishi vakili U.Petti, D.Rikkardo, Dj.Styuart Mill va boshqalar tomonidan raqobatni bozor sharoitida shu muhit ishtirokchilari o'rtasida eng ko'p foyda olish uchun olib boriladigan bellashuv sifatida talqin qilinganligi va bu kurashning usullari tadqiq etilganligi shohidi bo'lamiz.

XX-XXI asrda G'arb iqtisodchilaridan J.M.Keyns, A.Marshall, J.Robinson, M.Porter va boshqalar raqobatni iqtisodiy nuqtai-nazardan tadqiq etdilar va bu jarayonning tashkil etuvchilari, uning omillarini o'rgandilar.

Rossiyalik tadqiqotchilar Yu.B. Rubin tomonidan ta'lim sohasidagi raqobat masalalari, Yudanov Yu.A. esa iqtisodiyotda raqobat nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan Sh.Negmatova tomonidan hayvonot olamidagi, jinoyat olamidagi va xalqaro miqyosdagi axborot tazyiqi sohasidagi raqobat muammolari, A.A. Abduvaliyev tomonidan raqamlı iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash masalalari, E.A.Xoshimov va L.O'.Mingishov tomonidan mamlakatda to'laqonli raqobat muhitini shakllantirish ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning muhim omili sifatida o'rganilgan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va mantiqiylikning birligi, analiz va sintez, deduksiya, mavhumlashtirish va umumlashtirish ilmiy metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. O'zbek tilining izohli lug'atida "raqobat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "kuzatish", "nazorat" degan ma'nolarni anglatadi[2], deyilgan. "Basma-bastlikka bellashuv, kim o'zdi va talabgorlar, raqiblar kurashi", deb izoh berilgan. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "raqobat" tushunchasiga iqtisodiy ta'rif berilgan. "Raqobat-mustaqlil tovar ishlab chiqaruvchi(korxona)lar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeyini mustahkamlash uchun kurash", deb ta'kidlangan[3].

Zamonaviy iqtisodiy paradigmada "sog'lom raqobat"ning zarurligi va foydaliligi aksioma sifatida taqdim etiladi. Mashhur iqtisodchilar raqobatga taraqqiyot harakatlantiruvchisi, tengi yo'q qadriyat, ijtimoiy institutlarning samaradorligini belgilovchi mezon sifatida qarashadi[4]. Ammo ushbu masala bo'yicha ilmiy-falsafiy fikr tarixi juda sodda emas va o'z nihoyasini topmagan. Aristotel o'z vaqtida iqtisod nafaqat birlamchi ehtiyojlarni qondirishga yordam beradi, balki inson ehtiroslari xizmatkoriga aylanib qolishi va hayotning bosh ma'nosini o'rniga da'vogar bo'lib qolishi mumkin, degan[5]. Shuning uchun S.S.Sulakshin va boshqalarning fikricha, davlat va ijtimoiy tartib taraqqiyoti inson axloqining eng yaxshi jihatlarini ochishga imkon beruvchi nisbatan mukammal shakllarni qidirishga undaydi[6]. Ijtimoiy-falsafiy fikr tarixida raqobat tushunchasiga uch xil yondashuvni kuzatishimiz mumkin.

Fikrning birinchi yo'nalishiga ko'ra, hayotga mavjudlik uchun kurash sifatida, insoniy munosabatlarga hokimiyat, sharaf va lazzatlanish uchun kurash sifatida qarashdir. Masalan, Geraklitning fikricha, urush-umum qabul qilingan, dushmanlik-oddiy hol, hamma narsa unga ko'ra paydo bo'ladi. Qadimgi Yunon miflari xudolarning va insonlarning bir-biriga nisbatan dushmanligi va ayyorligi sahnalariga to'la.

Qadimgi Hindiston falsafasining yodgorligi "Dxammapada" asarida jumladan yana shunday deyilgan: "Dushman dushmanaga yoki nafratlanuvchi kishi o'zi nafratlangan kishiga nimaiki qilmasin, noto'g'ri yo'naltirilgan fikr yana-da yomonroq oqibatlarga olib kelishi mumkin. Inson boshqalarning amalga oshirilgan va oshirilmagan ishlariga emas, balki o'zining qilingan va qilinmagan ishlariga e'tibor bersin"[7]. Yuqorida fikrdan ko'rinish turibdiki, buddaviylikda insonlar o'rtasidagi kurash raqobatning bir ko'rinishi sifatida tavsiflanganligi ko'zga tashlanadi.

Qadimgi Xitoy falsafasidagi daosizm oqimiga taalluqli yozma manba "Dao de-szin"da quyidagi mulohazalar keltirilgan. "Oliyanob hukmdor qo'shni davlatlar bilan munosabatlarda odatiy vaqtda kelishuvchan bo'lishni afzal ko'radi va faqat urush vaqtida zo'ravonlik ishlatadi. Qo'shin baxtsizlik quroolidir, shuning uchun oliyanob hukmdor uni qo'llamaslikka intiladi hamda qo'shinni haddan tashqari vaziyatlar taqozo qilgandagina qo'llaydi. Davlat adolat bilan boshqariladi. Urush esa hiyla bilan olib boriladi".[8] Demak, adovat, raqobat oxir-oqibatda urushga olib borishi mumkinligi qadimgi davrdayoq anglangan.

Qadimgi Yunonistonlik faylasuf Epikur (mil.av. 342/341-270/271 yy.)ning fikricha: “Doimo kulib, falsafa bilan shug‘ullanib, ayni paytda xo‘jalik bilan mashg‘ul bo‘lish, boshqa qobiliyatlardan foydalanish hamda haqiqiy falsafiy mulohazalarni izhor etish lozim. Tabiatni o‘rganish maqtanchoq va kibrli bo‘lmagan, odamlar to‘dasi oldida raqobat mavzusi bo‘lgan o‘z ma‘lumotini namoyish qilmaydigan, lekin shu bilan birga mard bo‘lgan, shart-sharoit tufayli emas, balki o‘zlari erishgan shaxsiy yutuqlaridan rozi bo‘lgan va g‘ururlanadigan insonlarni vujudga keltiradi. Hech kimga hasad qilish kerak emas: ezgu insonlar hasadga loyiq emas, yovuzlari esa baxtliroq bo‘lganlari sari o‘zlariga ziyon yetkazadilar”[9]. Epikurning fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, muvaffaqiyatga erishish uchun turli insonlar o‘rtasida vujudga keladigan salbiy munosabatlardan ustun turish, yutuqlar sari intilish kerak.

Sharq falsafasida eng qadimgi yozma manbalardan bo‘lmish Avestoda ham raqobat sahnalarini ko‘rish mumkin. Xudolar Axuramazda va Axriman, aka-uka bo‘lishiga qaramasdan, o‘rtasidagi kurash bu dunyodagi ustunlik, odamlar ustidan hukmron bo‘lish kabi maqsadlar uchun olib borilgan. Bu esa raqobat munosabatlari qadimdan insoniyatga xos ekanligidan dalolat beradi.

Abu Ali ibn Sino o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatda tabiiy notenglik bo‘lishiga sabab-bu borliqning o‘z mavjudligini saqlab qolishga urinishidan, deb tushuntiradi. Agar jamiyatda hamma boy bo‘lganida edi, jamiyat raqobat va hasadga asoslangan konfliktlardan vayron bo‘lgan bo‘lardi. Agar jamiyatda hamma kambag‘al bo‘lganda edi, odamlar qashshoqlik natijasida qirilib ketgan bo‘lardi. Har kim jamiyatdagi o‘z mavqeyidan qoniqishi kerak, chunki boy odam uning davlati qandaydir tarzda undagi uncha yuqori bo‘lmagan aql va ma‘lumotlilikni o‘rnini qoplashiga amin bo‘ladi; o‘qimishli kambag‘al esa o‘z mavqeini badavlat johilning mavqeyi bilan taqqoslab, o‘zinikini afzal ko‘radi. O‘z hunaridan non topadigan usta na keng vakolatlarga ega bo‘lgan hokim-u va na bitmas-tuganmas boylikka ega bo‘lgan badavlatga hasad ko‘zi bilan qaraydi[10].

XVII asrda Tomas Gobbsning yozishicha, har bir raqib o‘z xohishlarini amalga oshirish uchun zo‘ravonlik yo‘li bilan boradi, shuning uchun barchani qo‘rquvda ushlab turuvchi hokimiyat yo‘qligida odamlar “barchaning barchaga nisbatan urushi” holatida bo‘ladi[11]. XIX asrda Charlz Darwin biologik turlarning kelib chiqishini yashash uchun kurash orqali tushuntirgan va buni inson kelib chiqishi jarayoniga ham tatbiq etgan.

Bunday “agressiv raqobat” konsepsiyasining salbiy tomonlari ilgaridanoq tanqid qilingan. Chunki, tirikchilik uchun insonni insonga bunday dushmanlik kayfiyatida munosabatda bo‘lishi uning qadr-qimmati to‘g‘risidagi tasavvurlarga to‘g‘ri kelmaydi.

Nazariya va amaliyotning ikkinchi va bugungi kunda eng ko‘p tarqalgan yo‘nalishi “sog‘lom” raqobat to‘g‘risidagi ta’limotdir. Unga ko‘ra iqtisodiy munosabatlarda yolg‘on, maqsadli o‘zgaga ziyon yetkazish, bozorlar monopolizatsiyasi bo‘lmasligi kerak. Munosabatlarni tartibga keltiruvchi asosiy vosita — davlat, o‘z-o‘zini boshqaruvchi, nodavlat tashkilotlari. Raqobat bunday holatda urush emas, balki ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘z foydasiga ega bo‘ladigan musobaqaga o‘xshash holatdir. Taraqqiyotning yetakchi omili ilmiy-texnik taraqqiyot va inson kapitali-bilimlar, malakalar, qobiliyatlar hisoblanadi. Bunday yo‘nalishning birinchi va bosh himoyachisi Adam Smitning fikricha, raqobat sifatni yaxshilaydi, foydani tenglashtiradi va baholarni optimallashtiradi. Bunday qarashni mukammal raqobatning modeli sifatida ko‘riladi. Ammo vaqt bunday modelning kamchiliklarini ko‘rsatib berdi va tez orada monopolistik, mukammal bo‘lmagan va h.k. raqobat shakllari to‘g‘risidagi nazariyalar paydo bo‘ldi.

Bunday paradigmani eng katta kamchiligi – uning hayotga tatbiq etishning juda qiyinligi, iqtisodiy agentlar xulq-atvorini normativ tartibga keltirishning murakkabligi hisoblanadi.

Tushunarlik, tashqi yuridik qonun doimo ham mukammal emas va inson ichki erkinligi bilan ziddiyatga ega, shuning uchun qonunchilik doimo o'zgarib boradi hamda hech qachon to'liq uyg'unlikni yuzaga keltirmaydi. M.M.Stirovning fikricha, "sog'lom" raqobatning chuqurroq kamchiligi uning ko'proq moddiy farovonlikka qaratilganligi va buning oqibatida insonning ruhiy va axloqiy takomillashuviga kam e'tibor berilishi, uni maqsad emas, balki xo'jalik faoliyatining vositasi sifatida qaralishi, odamlarni ajratishga bo'lgan tendensiyasi[12].

Nihoyat, raqobat to'g'risidagi fikrlarning uchinchi yo'nalishi unchalik ommalashgan emas, lekin kelajakda muhim o'ringa ega bo'lib, chuqurroq ko'rib o'tilishga loyiq. Bunday qarashning mohiyatida odamlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish foydaliligini inkor etish hamda ochiqlilik, hamkorlik, hatto qurbon bo'lish tamoyillari asosida xo'jalik tizimini samarali qurishga ishonch yotadi. Bunday "do'stona" yondashuv to'g'risida faylasuflar qadimdan orzu qilganlar. Platonning fikricha, davlatning maqsadi kishilarni bir butun qilib jamlash, "o'zaro bir-biridan xabardor bo'lish va bir-biriga yordam berish" orqali yashashdir[13].

Hamkorlik g'oyalari axloqiy jihatdan shuning uchun ham afzalki, xo'jalik yuritishning dastlabki shartlari individuumlar uchun qanchalik bir xil bo'lmasa turli xalqlar uchun tabiiy-iqlimi o'ziga xosliklar sabab ham o'zgacha. Zamonaviy iqtisodiy fonda Adam Brandenburger va Barri Neylbaff "raqobat hamkorligi" konsepsiyasini taklif etishmoqda, ya'ni mahsulotni birgalikda yaratish va oxirida mehnat natijasini o'rtada taqsimlash. Zamonaviy xo'jalikda hamkorlikning omadli namunasi sifatida iqtisodiy klasterlar, texnoparklar, xalqaro standartlar tizimi, ilmiy-tadqiqot jamoalari, jamoaviy moliyalash (kraundfanding), resurslardan jamoaviy foydalanish (kraudorsing) va h.k.

Ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurda raqobatga qarashlarni shartli ravishda uchta davrga bo'lish mumkin:

- raqobat nazariyasi rivojlanishidagi "mumtoz" davr — mukammal raqobat ideal modelidan raqobatni davlat tomonidan tartibga solinishi zarurligi to'g'risidagi birinchi asoslashga qadar (XVIII-asr XX-asrning birinchi yarmi);

- kompaniyaning strategik menejmenti konsepsiysi doirasida raqobatbardoshlikni boshqarish bosqichi;

- "eng yangi" bosqich-raqobat kurashida innovatsiyalardan foydalanishning murakkabroq modellaridan foydalanish (boshqalardan maksimal "farq qilish"), raqobatni tizimlarning boshqa darajasiga chiqishi (tovarni yaratishning butun zanjiri bo'yicha raqobat, raqobatchilar bilan kooperatsiya, klasterlarning tashkil bo'lishi, davlatning "yumshoq" sanoat siyosati).

Xulosa va tavsiyalar. Birinchidan, "raqobat" tushunchasi uch xil aspektida tushuniladi. Birinchisi, jarayon sifatida, ya'ni bozor muhitida uning ishtirokchilari bellashuv faoliyatini amalga oshiradilar. Bozorda eng yaxshi sharoitlarga ega bo'lish uchun o'z faoliyati samaradorligini boshqarib, raqobatchilarning holatini o'rganadilar, o'z mahsulotlarining jozibadorligi darajasini ko'taradilar. Ikkinchidan, raqobatni munosabat sifatida tushuniladi, ya'ni bu munosabat kamida ikki ishtirokchi o'rtasida ro'y beradi.

Raqobatchilar o'zining eng yaxshi tomonlarini namoyon qilib, bir-biridan qaysi bir sohada o'zishga harakat qiladilar. Uchinchidan, raqobat xulq-atvor sifatida tushuniladi, ya'ni bunda raqobatchilar eng yaxshi natijalarga erishish yo'lida axloqiy va axloqiy bo'limgan vositalardan foydalanishlari mumkin.

Ikkinchidan, Tadqiqot davomida o'rganilgan yozma manbalardan "raqobat" tushunchasining jamiyatda falsafiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy tafakkuragi evolyutsiyasini mantig'ini keltirish mumkin. Dastlab, qadimgi dunyo va o'rta asrlarda asosan, raqobat bu insonlarning bir-biriga munosabatlarda namoyon bo'luvchi hayotdagi eng yaxshi sharoitlar,

imkoniyatlarga ega bo'lishga intilish sifatida tushunilgan. Uyg'onish davri oxiri va yangi davrga kelib, sanoat rivojlanib, falsafadan fanlarning ajralib chiqishi ro'y berishi bilan dastlabki iqtisodiy ta'limotlar paydo bo'ldi. Ana shu iqtisodiy ta'limotlar tomonidan dastlabki raqobatning iqtisodiy talqinlari vujudga keldi. Raqobat bozor ishtirokchilarining turli iqtisodiy vositalarni qo'llash orqali eng ko'p daromad olishga intilishi sifatida namoyon bo'ldi. Raqobatchini bozordan siqib chiqarish, uni tanazzulga yuz tutishiga olib kelish, "nosog'lom" raqobat usullarini qo'llash kabilar mavjud bo'lgan. XX asr 90-yillar oxiridan esa raqobatga yangicha qarash shakllana boshladi.

Uchinchidan, raqobat jarayoni XVIII asrdan boshlab ilk iqtisodiy maktablar: mumtoz iqtisod maktabi, siyosiy iqtisod maktabi vakillari asarlarida iqtisodiy tushuncha sifatida o'rGANildi. Uning ilmiy ta'riflari, tasniflari vujudga keldi.

To'rtinchidan, XXI asr birinchi choragida raqobat yangi ko'rinish oldi, ya'ni raqobatchilarning yagona qadriyatlar zanjirini hosil qilish yo'lida kooperatsiyasi vujudga keldi.

Shunday qilib, insoniyat tafakkuri tarixi raqobat tabiatini tushunishda insonlar o'rtaSidagi kundalik va xo'jalik munosabatlari, shu asosda quriladigan turli yondashuvlarni namoyon qiladi. Dunyo va O'zbekiston iqtisodi magistral yo'lini tanlash va uni amalga oshirishi davlat, tashkilot, insonning ruhiy o'z taqdirini o'zi belgilashiga bog'liq.

Литература/Адабиётлар/References:

1. "Raqobat to'g'risidagi qonun" yangi tahrirda ma'qullandi// <https://xs.uz/uzkr/post/raqobat-togrisidagi-qonun-yangi-tahrirda-maqlandi>
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти. 2020. - Б.360// https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20R.pdf
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" нашриёти// https://e-library.namdu.uz/R_harfi.pdf
4. Тарануха Ю.В. Конкуренция и конкурентоспособность.-М.: Русайнс, 2015.- 336 с.
5. Аристотель. Политика. -М.: Юрайт, 2018. -219 с.
6. Нравственное государство. От теории к проекту / С. С. Сулакшин, В. Э. Багдасарян, М. В. Вилисов и др. М.: Наука и политика, 2015.- 424 с.
7. Дхаммапада//Антология мировой философии в четырех томах. -М.: Изд-во социально-экономической лит-ры.,1970. -Т.1., - с.129
8. Дао де-цзин//Антология мировой философии в четырех томах. М.: Изд-во социально-экономической лит-ры.,1970. Т.1., - 189 с.
9. Антология мировой философии в четырех томах. -М.: Изд-во социально экономической лит-ры., 1970. Т.1. - С.359
10. Сагадеев А. Абу Али ибн Сина (Авиценна). -М.: Изд-во "Мысль", 1980. - С.73
11. Гоббс Т. Левиафан. - М.: Мысль, 2001. -478 с.
12. Стыров М.М. Конкуренция: духовные истоки и направления мысли// Вестник Научно-исследовательского центра корпоративного права, управления и венчурного инвестирования Сыктывкарского государственного университета. 2019. - № 4.- С.108-115.
13. Платон. Государство. - М.: Академический проект, 2015. -398 с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).